



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 12.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Najmiddinova Nafosat Zafarbekovna.,
Erkinova Soraxon Odiljon qizi.,
Madinaxon Xolmirzaeva Akramjonovna
Andijon davlat universiteti
Uzbekistan
najmiddinovanafosat@gmail.com

SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTIRISHDA JISMONIY TAYYORGARLIKNI AHAMIYATI

Abstract: In this article, one of the factors for ensuring a healthy lifestyle is physical exercise and measures to improve physical fitness and issues of their development.

Keywords: physical development, anthropometry, physiometry, physical training, running.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sog'lom turmush tarzini ta'min etuvchi omillaridan biri jismoniy mashqlar va jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish chora-tadbirlari va ularni rivojlantirish masalalari ko'rilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy rivojlanish, antropometrik, fiziometrik, jismoniy tayyorgarlik, yugurish.

Аннотация: В данной статье изложено факторы обеспечения здоровья и здорового образа жизни, а также физические упражнения являются одним из мероприятий по улучшению физической подготовленности и их развития.

Ключевые слова: физическое развитие, антропометрия, физиометрия, физическая подготовка, бег.

Language: Uzbek

Citation: Nazhmiddinova, N., Erkinova, S., & Kholmiraeva, M. (2024). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL FITNESS IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE. Universal International Scientific Journal, 1(9), 107–111. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1226>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14471479>

Tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzini shakillantirishda maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarlik darajasi xamda salomatligi holatini doimiy ravishda monitoring qilish maqsadida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ularning salomatligini mustahkamlash chora–tadbirlari kompleksini ishlab chiqish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bolalar organizmining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash yo'nalishida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi optimallashtirilishida o'quv mashg'ulotlari kompleksi tarkibiga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda kiritish, kun rejimi, o'quvchilarning emotsional holatini hisobga olish asosida, sog'lomlashtirish mashg'ulotlarini joriy qilish ijobiy natija berishi qayd qilingan [Magomedov va boshq.,

2016;]. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar MDH miqyosida A.T.Baygazakov (2002), S.A.Mirbabaeva (2004) va boshq. tomonidan amalga oshirilgan.

Maktab o'quvchilarining (5–6 sinf) jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini o'rganish yo'nalishida A.A.Safronov va I.T.Arislanov (2013) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda (Toshkent sh.) antropometrik (bo'y, tana vazni indeksi, ko'krak qafasi aylanasi), dinamometrik va pul'sometrik tadqiqot uslublari yordamida, shuningdek turli xil masofalarga (60, 100 m) yugurish, joyidan uzunlikka sakrash, turnikka tortilish va yotgan holatda qo'llarni bukib–yozish sinov mashqlari asosida olingan natijalar umumiy holatda o'quvchilarda tana vazni indeksi, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining standart qiymatlardan sezilarli darajada pastligi aniqlangan va ushbu masala yechimida ilmiy asoslangan jismoniy tarbiya dasturlaridan foydalanish kerakligi tavsiya qilingan [Safronov va Arislanov, 2013;]. S.Tajibaev (2017) tomonidan yosh

sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda o'quv-mashg'ulotlarini yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holatda tashkil qilish respublikamiz miqyosida bolalar va o'smirlar sporti nazariyasi va amaliyotida dolzarb masalalardan biri hisoblanishi ta'kidlangan va ushbu yo'nalishda ayrim uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan [Tajibaev, 2017;].

Tadqiqot maqsadi. Andijon viloyatida joylashgan 17, 26, 30, 4 va 5-o'quvchilarning kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining (7-10 yosh) jismoniy tayyorgarlik darajasini o'rganish tashkil topgan.

Tadqiqot vazifasi. kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida joyidan uzunlikka sakrash mashqi asosida sog'lom turmush tarzini shakillantirishda jismoniy xarakterlarni ahamiyatini tushintirishdan iborat.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlarda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi quyidagi tadqiqotchilar ishlarida keltirilgan uslublar yordamida amalga oshirildi [Aulik, 1990; Bogat'rev va Tsirkin, 1999; Dvorkina, 2002; Golovina va boshq., 2004; TSirkin va Svinar, 2007;].

Jumladan, tadqiqotlarda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining (7-10 yosh) jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashda ob'ektiv ma'lumotlar olish imkonini beruvchi [Muratova, 2009;], belgilangan masofaga (30

m) yugurish va joyidan uzoqlikka sakrash mashqlaridan foydalanildi [Landa, 2006; Yefimova va boshq., 2015;]

Natijalar. Tadqiqotlarning navbatdagi seriyasida Andijon viloyatining joylashgan 17, 26, 4, 30 va 5-maktablarda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida (7-10 yosh) standart test-mashqlar (joyidan uzunlikka sakrash) yordamida jismoniy tayyorgarlik darajasini solishtirish asosida tahlil qilish amalga oshirildi.

Tadqiqotlar amalga oshirilgan joylashgan 17, 26, 4, 30 va 5-maktablarda 7-10 yosh diapazonida, o'g'il bolalar va qizlar guruhlarida jismoniy tayyorgarlik sezilarli darajada o'zaro farqlanishga ega hisoblanadi

Jumladan, Andijon viloyatida joylashgan 17, 26, 4, 30 va 5-maktablarda 7-10 yosh diapazonida har ikkala jins vakillarida joyidan uzunlikka sakrash (sm) test-mashqi natijalari bo'yicha jismoniy tayyorgarlik darajasi umumiy holatda stastistik ishonarli darajada chiziqli tavsifda ortib borishi aniqlandi. Bunda 17, 26, 4, 30 va 5-maktablarda 7-11 yosh diapazonida o'g'il bolalarda joyidan uzunlikka sakrash (sm) ko'rsatkichining o'rtacha qiymatlari mos ravishda – 125,7; 133,5; 141,5 va 139,4 sm, qiz bolalarda mos ravishda – 123,3; 134,8; 132,9 va 141,2 sm ga tengligi aniqlandi.

Jumladan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya darslari dasturlari bo'yicha ishlab chiqilgan standart/me'yor qiymatlarida 7–10 yoshda joyidan uzunlikka sakrash (sm) spektri o'g'il bolalar uchun – 100–130 sm, qiz bolalar uchun esa – 90–155 sm ga teng hisoblanadi.

Tadqiqotlarda olingan raqamli ma'lumotlarning tahlilidan ko'rish mumkinki, 17–maktabga nisbatan 5–maktabda 7–11 yosh diapazonida o'g'il bolalar va qiz bolalarda joyidan uzunlikka sakrash (sm) ko'rsatkichi qiymati mos ravishda – 1,18 va 1,25 marta yuqori hisoblanishi aniqlandi.

Shuningdek, 7–11 yosh diapazonida qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan joyidan uzunlikka sakrash (sm) ko'rsatkichining qiymati 1,04 marta yuqori hisoblanishi aniqlandi. Ushbu o'rinda qayd qilib o'tish kerakki, o'g'il bolalar va qiz bolalar o'rtasida bu farqlanish qiymati №5–maktabdan №17–maktabga tomon yo'nalishda kamayib boradi.

Xulosalar. Tadqiqotlarda keltirib 17–maktabga nisbatan 5–maktabda 7–10 yosh diapazonida o'g'il bolalar va qiz bolalarda joyidan uzunlikka sakrash (sm) ko'rsatkichi qiymati mos ravishda – 1,18 va 1,25 marta yuqori hisoblanishi aniqlandi. Shuningdek, 7–10 yosh diapazonida qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan joyidan uzunlikka sakrash (sm) ko'rsatkichining qiymati 1,04 marta yuqori hisoblanishi aniqlandi. Ushbu o'rinda qayd qilib o'tish kerakki, o'g'il bolalar va qiz bolalar o'rtasida bu farqlanish qiymati 5–maktabdan №17–maktabga tomon yo'nalishda kamayib boradi. Tadqiqotlarda o'g'il bolalarda 7–10 yosh diapazonida joyidan uzunlikka sakrash (sm) ko'rsatkichining o'sish tempining o'g'il bolalarda joyidan uzunlikka sakrash (sm) ko'rsatkichi nisbatan 7–9 yoshda yuqori qiymatga ega bo'lib, 17–maktabda har ikkala jins vakillarida ushbu ko'rsatkichning o'sish tempi sezilarli darajada past bo'lishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Magomedov, G.A., va boshqalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi. Moskva: O'quvchi Nashriyoti 2016.
2. Baygazakov, A.T. MDH maktab o'quvchilarida jismoniy rivojlanishni optimallashtirish. Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi 2002.
3. Mirbabaeva, S.A. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining o'quv dasturlariga kiritilishi. Toshkent: Sharq Nashriyoti 2004.
4. Safronov, A.A., & Arislanov, I.T. Toshkent shahrida maktab o'quvchilarining antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqot. Toshkent: Fan 2013.
5. Tajibaev, S. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish yo'nalishida o'quv mashg'ulotlari. Andijon: Sport Nashriyoti 2017.

6. Aulik, I.V. Jismoniy rivojlanish mezonlari. Leningrad: Pedagogika 1990.
7. Bogat'rev, I., & Tsirkin, D. Bolalar jismoniy tarbiyasining asoslari. Moskva: O'quv Nashriyoti 1999.
8. Dvorkina, S.V. Antropometrik va fiziometrik usullar. Moskva: Fizkultura va sport 2002.
9. Golovina, A., va boshqalar. Bolalarda dinamometrik tadqiqot uslublari. Sankt-Peterburg: Fanlar Nashriyoti 2004.
10. Tsirkin, D., & Svinar, P. Yugurish va sakrash bo'yicha testlar. Moskva: Fizkultura Nashriyoti 2007.
11. Muratova, A. Kichik yoshdagi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi tadqiqot usullari. Toshkent: O'quvchi 2009.
12. Landa, I.V. Jismoniy mashg'ulotlar bo'yicha sinov usullari. Moskva: Sport Nashriyoti 2006.
13. Yefimova, N.V., va boshqalar. 30 metrga yugurish va uzunlikka sakrashning ahamiyati. Novosibirsk: Fan 2015.